

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

*ALISHERNAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI*

**TABIIY FANLAR FAKULTETI EKOLOGIYA VA
TABIATNI MUHOFAZA QILISH KAFEDRASI**

ERGASHEV BAXTIYOR

*Zarafshon daryosi sohili ekotizimlariga antropogen
omillarning ta'siri.*

5630100-"EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT MUHOFAZASI TA'LIM
YO'NALISHIBO'YICHA BAKALAVR DARAJASINI OLISH UCHUN

BITIRUV MALAKAVIYISHI

Ilmiy rahbar: dots. Majidova T.

Bitiruv malakaviy ish "Ekologiya va ta'biatni muhofaza qilish" kafedrasida bajarildi. Kafedraning 2015 yil " _____ " iyundagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi (bayonnoma № _____)

Kafedra mudiri: dots. Boymurodov X. T

Bitiruv malakaviy ish YaDAKning 2015 yil " _____ " iyundagi majlisida himoya qilindi va _____ ball bilan baholanda (bayonnoma № _____).

YaDAKraisisi: _____

Samarqand 2015 yil

Mundarija

Kirish.....	3
1. Adabiyotlar sharhi.....	5
1.1. Zarafshon daryosi soxili ekotizimlariga antropogen omillarning ta'sirini o'rganilish tarixi.....	5
2. Tadqiqot sharoitlari, ob'ekti va uslublari.....	9
2.1. Tadqiqot sharoitlari Zarafshon vodiysi tabiati.....	9
2.2. Tadqiqot ob'ektlari.....	27
2.3. Tadqiqot uslublari.....	27
3. Tadqiqot natijalari Zarafshon daryosi soxili ekotizimlariga antropogen omillarning ta'siri.....	28
3.1. Zarafshon daryosi soxili ekotizimlari.....	28
3.2. Zarafshon daryosi soxili relefining o'zgarishiga antropogen omillarning ta'siri.....	30
3.3. Zarafshon daryosi suv resurslarining ifloslanishiga antropogen omillarning ta'siri.....	36
3.4. Zarafshon daryosi soxili ekotizimlaridan foydalanish natijasida tuproqlarning o'zgarishi.....	40
3.5. O'simliklarga antropogen omillarning ta'siri.....	44
3.6. Hayvonot olamiga antropogen omillarning ta'siri.....	47
3.7. Zarafshon daryosi soxili ekotizimlarini muhofaza qilish.....	50
Xulosalar	52
Tavsiyalar.....	54
Foydalanilgan adabiyotlar.....	55

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi. Zarafshon o'lkasida tabiatning boshqa unsurlari singari o'simliklari g'arbdan sharqqa, tekislikdan tog'ga tomon o'zgarib boradi. Akademik Q.Z. Zokirov Zarafshon vodiysida mintaqalarni ajratadi. Cho'l balandlik mintaqasi Zarafshon o'lkasining 400 m balandlikkacha bo'lgan qismlarini o'z ichiga oladi. Cho'lda zarafshon vodiysining g'arbiy tekislik qismi kiradi. Bu erda yoz issiq, quruq, jazirama bo'lib, uzoq davom etadi. Shunday sharoitga moslashgan o'simliklar o'sadi. Cho'llarda efermer, efermeroid shuvoq kabi o'simliklar ko'p o'sadi. Adir mintaqasi 400 – 1200 metrgacha bo'lgan joylarini o'z ichiga oladi. Adirda Zarafshon vodiysining sharqiy qismi va uni o'rab olgan Nurota, Oqtog' hamda Zarafshon tog'larning g'arbiy davomi kiradi.

Zarafshon daryosi soxili ekotizmlariga antropogen omillarning ta'sirini o'rganish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Zarafshon tabiiy geografik o'lkasining balandligi 1200 – 1600 m bo'lgan qismlarida yoz nisbatan salqin, sernam, qishda qor qoplami qalin bo'ladi. Bunday sharoitda o'ziga xos bo'lgan tabiat komplekslari shakllanganligini ko'ramiz. Asosiy o'simliklar archa, yong'oq va boshqalarni tashkil etadi[5].

Tog' mintaqasida joylashgan Omonqo'ton manzilining o'simliklari diqqatga sazovordir.

Zarafshon vodiysi tabiatga insonning xo'jalik faoliyati ta'sirida tabiat komplekslarida bir qator o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. O'lkaning havosi va suvlari ifloslanmoqda. Bunga asasiy sabab Samarqand Navoiy, Buxoro va Kattaqo'rg'on shaharlarida joylashgan zavod – fabrikalardan, transportdan issiqlik elektrostansiyalaridan chiqayotgan har xil zararli chiqindilar ta'siri. Suv va tuproq komplekslarining ifloslanishida qishloq xo'jaligida ishlatiladigan kimyoviy moddalarning roli ham bor. Zarafshon vodiysi tabiat komplekslarini tabiiy holda saqlab qolish maqsadida Zarafshon qo'riqxonasi tashkil etilgan. Qo'riqxonada to'qay ekotizimlari kompleks holatda muhofaza qilindi.

Rel'ef va tog' jinslari, iqlim, suv, tuproq, o'simlik va hayvonot tabiat komponentlari deb ataladi. «Komponent» so'zi lotincha bo'lib «tashkil etuvchi» degan ma'noni anglatadi. Tabiat komponentlari o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib ular birgalikda tabiat kompleksini tashkil etadi.

Tadqiqot maqsadi

Ishning asosiy maqsadi Zarafshon daryosi soxili ekotizmlariga antropogen omillarning ta'sirini har tamonlama o'rganishdan iborat edi.

Tadqiqot vazifalari .

4. Zarafshon daryosi soxili ekotizmlariga antropogen omillarning ta'sirini o'rganilish tarixini o'rganish.
- 2.Zarafshon daryosi soxili ekotizmlarini o'rganish
- 3.Zarafshon daryosi soxili relefining o'zgarishiga antropogen omillarning ta'sirini o'rganish .
- 4.Zarafshon daryosi suv va tuproq resurslari ifloslanishiga antropogen omillarning ta'sirini o'rganish.
- 5.Zarafshon daryosi soxili o'simlik va hayvonot olamiga antropogen omillarning ta'sirini o'rganish.
- 6.Zarafshon daryosi soxili ekotizimlarini muhofaza qilishni o'rganish.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Olingan ma'lumotlar Zarafshon daryosi soxili ekosistemalarini muhofaza qilishda, ularning biologik mahsuldorligini oshirishda muximdir.

Suvlarni ifloslanishi toza ichimlik suvi muammosi muxim masalalardan biri. Zarafshon daryosi soxili ekotizmlariga antropogen omillarning ta'sirini o'rganish ilmiy va amaliy jihatidan muxim ahamiyatga ega.

Ishning tuzilishi va xajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, adabiyotlar sharxi, tadqiqot natijalari, xulosalar, tavsiyalardan va mavzuga bog'liq ta adabiyot manbalaridan iborat. Ish kamyuterda terilgan bet. Ishda jadval va rasm mavjud.

1. Adabiyotlar sharhi.

1.1. Zarafshon daryosi soxili ekotizimlariga antropogen omillarning ta'sirini o'rganilish tarixi.

Tekislik zona dengiz satxidan 5000 m.gacha baland bo'lib, zarafshon daryosining o'ng va chap qirg'oqlaridagi terrasalari bo'ylab g'arbdan sharqqa qarab cho'zilib ketgan katta masofani egallab yotadi. Samarqand viloyatining asosiy qishloq xo'jalik ekinlari ana shu tekislikda joylashgan. Bu zonada tabiiy sharoitning qulayligi qadimdan sug'orma dexqonchilikni rivojlanishiga sabab bo'lgan. Inson bu zonada asrlar davomida xo'jalik faoliyati ta'sirida tabiiy landshaftlar qiyofasini o'zgartirib madaniy landshaftlarni vujudga keltirdi.

Tarixiy manba va tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, hatto eramizdan ilgari IV asrning ikkinchi yarmida ham kishilar bu erlarni o'zlashtirish uchun kanallar qazigan, suv chiqargan, ekin ekan, sug'orma dexqonchilik bilan shug'ullanganlar[24].

O'zbekistonda feodalizmning eng rivojlangan davri VI – VIII asrlarga to'g'ri keladi. Ana shu davrlarda sharqshunos olim akademik V.V. Bartoldning yozishicha O'rta Osiyoga arablar kelgunga qadar sug'orish sistemalari juda yaxshi rivojlangan. Ko'plab ariqlar, kanallar, to'g'onlar mavjud bo'lgan.

Masalan: Sug'diylar qo'zg'alonni bostirish uchun arablar Varagserga (hozirgi davotxo'ja yoki I may to'g'oni) borgan. Bu erda zarafshon suvi Darg'om va Yana bir necha bo'linib Samarqandning janubiy territoriyalarini sug'orishganlar.

Qadimdan ya'ni arablar istelosicha bo'lgan davrlarda va keyin ham Varagser (Ravotxo'ja) to'g'oni zarafshon daryosi sug'orish sistemasida muhim ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Bu to'g'onni shu joylik Asad ibn Abdullax Samarqandga suv olib borish maqsadida 736 yillari qurgan To'g'ondan usha vaqtlarda ham 3 ta kanal suv olgan. Varagserdan boshlangan kanallarning nomi bir necha marotaba o'zgarib turgan. Uchta ariqning shimoliysi o'rta asrlarda Darg'om nomi bilan yuritilgan. Temuriylar davrida o'rta va janubiy kanallar Abbos va Karaunas nomi bilan

atalgan. Keyinchalik yangi – ariq deb yuritilgan. Varagserdan to Darg‘omning oxirigacha bo‘lgan masofa 10 farsax, kengligi 1-4 farsaxni tashkil qilgan.

Tarixiy topografik ko‘rsatmalar hamda N.P. Pertovskiyning 1904 yillarda Afrosiyobda olib borilgan qazishma va nevilirovka ishlari shuni tasdiqlaydiki, Afrasiyob suvini nafaqat janubiy yo‘nalishdan vodoprovod qurilmasi orqali olish mumkin deydi. Anna shunday vodoprovod qurilmasi mo‘g‘ullar istelosigacha O‘rta Osiyoda keng tarqalgan. Xitoylik sayyox Chan – Chunning yozishicha mo‘g‘ullar iste’losigacha Samarqand shahri ikki ariq orqali sug‘orilgan. Ulardan biri Xo‘ja Axror darvozasi orqali, ikkinchisi esa So‘zangaron.

Mo‘g‘ullar davrida Samarqand to‘g‘risida tarixiy topografik ma’lumotlar deyarli yo‘q. Faqatgina bizga shu narsa ma’lumki shahar asta – sekinlik bilan janubga o‘zlashtirilgan territoriyalarga siljiy boshlagan. X asrda aholining ko‘p qismi janubda joylashgan kvartiralarda yashagan V.L. Vyatkinaning ma’lumotiga ko‘ra: Samarqand shahrining janubiy – sharqiy territoriyalari Dashtek ariq orqali sug‘orilgan. Samarqanddan shimolda Yana uchta ariq mavjud bo‘lgan[26].

Samarqanddan yaqin territoriyaga kanallar oqib o‘tgan uning uzunligi aniq emas, undan shimolda Sinovab kanali uning uzunligi manbalarda ikki kunlik yo‘l deb ko‘rsatilgan. Yana shimolroqda Ishtixon kanali eng katta kanallardan hisoblangan: 4 farsax masofada uning suvidan foydalanilmagan, keyingi 7 farsaxli masofada uning suvidan sug‘orishda foydalanilganligi sababli kanaldan bir necha ariq ajralgan va atrof territoriyalari sug‘orilgan.

Ishtixon va Sinavab kanallari suvi to Ishtixon shahrigacha etib borgan. Samarqand tumanlari Temuriylar davridagidek XVII asrda ham ettita tumanni tashkil qilardi. Ular quyidagilar edi: Shavdar, Shiroz, Aliyabod, Anxor, Yar – Yoyloq, Sug‘dikalon va Afarinkent. Shavdar va Anxor tumanlariga Zarafshon va Qoradaryoning janubiy qismlarini o‘z ichiga oladi, Afarinkent – Qora va Oqdaryoning oralig‘idagi Myonqul orolini qolgan tumanlar Zarafshon va Oq daryoning shimoliy qismlarini egallagan.

Bunday bo‘linish to‘liq saqlanmagan: masalan, Anxor tumani tarkibiga Myonqulning janubiy – g‘arbiy qismi va Ishtixon shahri ham kirgan. Alyabod

tumaniga Chelek va To'rtko'l, So'g'dikalonga esa xalvain va Ishim – oqsoq, Yar – Yoyloq tumaniga esa Tuyatortar va O'smat qatortorlar kirgan. O'rta Osiyoga mo'g'ullar kelgunigaqadar deb yozadi Mason sug'dlar yashaydigan territoriyalarning bir necha joyida temir qazib olingan. Bular Cho'p – ota balandligida, Kirviot yaqinidagi Shavdar degan joyda va panjakent yaqinida. Rudani eritib temir olish uchun, ruda qazib olingan joyida yoqilg'i sifatida tog'da o'sadigan daraxt va butalar ishlatilgan. Shu davrlarda Chan – Chunning yozishicha Samarqandda 100 ming oila yashagan. Eramizdan avvalgi IV – asrda Zarafshon daryosining qayiri qalin to'qayzorlar bilan qoplangan bo'lgan. Bu haqida Aleksandr Makedonskiy haqida yozgan tarixchi va geograflarning qo'l yozmalari bor. Arianning yozishicha: Spitamen

boshchiligidagi qo'zg'olonchilar Samarqand yaqinidagi daryo vohasidagi o'rmondan Makedonskiy otryadiga hukum qilib bu otryadni qirib tashlagan[5].

Bu fikrlar shuni bildiradiki, eramizdan avval va era boshlarida o'rmonlar keng tarqalgan.

Masalan: Kursiy Rufning yozishicha Panjakent atroflari kishi o'tib bo'lmaydigan o'rmon va botqoqliklar mavjud bo'lgan. Bularga o'tin uchun juda ko'p daraxtlarni kesishga to'g'ri kelgan. atrofdagi o'rmonlar va Zarafshon qayiridagi daraxtlar ayovsiz qir qilgan. Zarafshondan suv oladigan kanallarning eng xeki Darg'om kanalidir. Tuyatortor va Eski Anxor kanallari ham eramiz boshlarida qazilgan. XVI asrda bu kanallar kengaytirilgan va uzaytirilgan (Muhammadjonov, 1978). XVI asrda Cho'pon ota yaqinda Shaybonixon davrida Oq va Qoradaryo bo'ltngan joyda suv taqsimlovchi to'g'on qurilgan. Bu ishlarning hammasi voxada dehqonchiliklarining yanada rivojlanishga sharoit yaratgan, yangi erlar o'zlashtirilgan, daryo qayiridagi to'qayzorlarning bir qismi yuqolib ekin maydoniga aylangan.

Samarqand viloyati 1868 yili Buxoro amriligidan tortib olingan va Rossiyaga qushilgandan keyin, voxada qishloq xujaligi ekinlar, ayniqsa, paxta maydoni keskin ko'paytirilgan. Bu esa suvni yanada tejim va kanallarni qizish zaruriyatni tug'dirgan

1878 - 1883 yillarda o'zlashtirilgan erlar va ularning kengaytirilish quyidagi ilova qilingan harajatda kusatilgan.

Yekin maydonlarning kenngayishi yangi erlarning o'zlashtirilishga olib keldi, natijada tabiiy landshaftlar qiyofasi o'zgara boshladi. Axolining kupayishi voxa tabiatiga ta'siri yana kuchaytirildi.

O'zbekistonning geologik tuzilishi, geomorfologiyasi va qazilma boyliklarni o'rganishda K.K. Markov, I.P.Gerasimov, H.M. Abdullayev, I.Hamroboyev, O. Akramxo'jayev, G'.O. Mavlonov, V.I. Popov, Yu.A. Skvorsov, M. Mamatqulov va boshqalarning xizmatlari katta.

O'zbekiston tabiiy geografiyasini yaxlit va iuning ayrim qisimlarini o'rganida hamda tabiiy geografik rayonlashtirishda N.L. Korjenevskiy, E.M. Murzayev, V.M.Chetirkin, L.N. Babushkin, N.A. Kogay, N.D. Dolimov, M. Qoriyev, M.Umarov, S. Nishonov, L. Alibekov, A.Abilqosimov, A.Rafiqov, P.G'ulomov, Sh.Zokirov, Yu.Sultonov kabi olimlarning qilgan ishlari muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston iqlimini o'rganishda L.N.Babushkin, V.A. Bugayev, V.A.Jorjio, F.A.Mo'minov, daryo va ko'llarni o'rganishda esa V.L.Shuls, O.P,Sheglova, R.Alimov. kabi olimlarning xizmatlari katta.

O'zbekiston yer osti suvlari, suv omborlari ularning xususiyatlari va miqdorini o'rganish ishi bilan G'.O.Mavlonov, N.A,Kenesarin, S.Sh.Mirzayev, N.Hojiboyev kabi olimlar shug'ullanganlar.

R.I. Abolin, K.Z.Zokirov, T.Z.Zohidov, I.I.Granitov, D.N.Kashkarov, Ye.N.Karovin, A.I.Formozov, M.Orifxonova, S.N. Rijov, A.Z.Genusov, A.Rasulov, H.Abdullayevlarning O'zbekiston tabiati va tabiiy boyliklarini o'rganish tarixi bilan H.Hasanov, A.Azatyan. R.Rahimbekov, R.Yugay, Z.N.Donsova, I.Inog'omov kabi mutaxassislar shug'ullanganlar.

2.Tadqiqot sharoitlari, ob'ekti va uslublari.

2.1.Tadqiqot sharoitlari Zarafshon vodiysi tabiati.

Geografik o'рни Samarqand vohasi O'rta Osiyoning markaziy qisimida, Zarafshon vodiysining o'rta oqimida joylashgan bo'lib, shimoldan Nurota tog' sistemasining Oqtov va Qoratorov tarmog'i bo'lib, u bilan janubda esa Zarafshon tog' tizmasi bilan chegaralanadi. Uning sharqiy chegarasi Ravotxo'ja yoki 1 may to'g'oni bilan g'arbda esa Oq va Qoradaryoning tutashgan Hazora qishlog'i atrofidan o'tadi.

Vaho Ravotxo'ja pasyolkasidan g'arbga tomon kengayib boradi va ayrim joylarda uning kengligi 50 - 55 km vodiyni tashkil qiladi.

Vodiy g'arbga tomon pasayib allyuvall yotqiziqlaridan iborat keng territoriyani vujudga keltiridi. Samarqand viloyatining sug'oriladigan asosiy qishloq xo'jalik ekinlari ana shu tekislikda joylashgan.

Zarafshon vohasida ham landshaftlarning vertikal zonal o'zgarishi yaqqol namoyon bo'lgan, bu singari o'simlik qoplami ham o'zgarib boradi. Voha o'simliklarini Q.Z. Zokirov 1955 yil quyidagicha to'rtta zonaga ajratadi.

1. Cho'l zonasi- balandligi 500 (600) m, reliefi tekislik, iqlimi juda issiq, yaylov sifatida yil bo'yi foydalaniladigan territoriyalar.
2. Adir zonasi- balandligi 500-600 m 1200 (1500) m reliefi tog' oldi iqlimi issiq bahori, kuzgi, qishgi yaylov sifatida foydalaniladigan territoriyalardir.
3. Tog' zonasi- balandligi 1200 (1500)- 1700 (2800) m reliefi tog'li iqlimi salqin yaylov sifatida bahorda yozda, kuzda foydalaniladi.
4. Yaylov zonasi- 2700-2800 m reliefi baland tog'li, iqlimi sovuq yaylovsifatida yozda foydalaniladi.

Nurota, Oqtov, G'ubdintov, Ziyoddin Zirabuloq tog' oldi etaklarida chala cho'l va cho'l o'simliklari asosiy o'rinni egallaydi. Bu erda shuvoq efermer o'simliklari ko'pchilikni tashkil etadi. Tog' etaklarining ayrim joylari ko'ziquloq o'simliklaridan iborat[8].

Rang qo'ng'irbosh, bug'doyiq, qiltiq chitir kabi efemer yaylov o'simliklaridan hisoblanadi.

Zarafshon vohasi tabiiy sharoitining xilma - xilligi hayvonot dunyosining xilma - xilligida ham ko'rinadi. Bu erda qumli cho'llarda, cho'l-dasht zonasida, tog' oldi va tog' zonasida, daryo vodiysida joyning landshaft sharoitiga moslashgan hayvonot turlari yashaydi.

Zarafshon o'rta oqimining shimoliy-g'arbiy qismi Qizilqum territoriyasida joylashgan. Shuning uchun bu erda yashovchi hayvonlarning rangi ko'lga o'xshash bo'ladi ya'ni sarg'ish rangda. Qumli cho'llarda sudralib yuruvchilardan cho'l kaltakesagi, tur-tur kaltakesak, ilonlardan cho'l bug'ma iloni va charx ilon efa karakterlidir.

Qushlardan xo'jasavdogar, chul burg'ayi, qarg'alar va boshqalarni uchratish mumkin. sut emizuvchilardan ingichka barmoqli yumronqoziq, sichqon, taroq barmoqli qushoyoq, tipratikan shuningdek bo'ri, tulki, jayron, quyonlar ham tarqalgan[9].

Samarqand viloyatining Zarafshon vodiysi soylarida oddiy Marinka, Zarafshon daryosida Turkiston tangabalig'i, Turkiston usachi, Marinka-sazan (zog'ora baliq), laqqa baliqlari tarqalgan.

Zarafshon vodiysining o'rta oqimida joylashgan bo'lib, shimoldan Nurota tog' sistemasining Oqtov va Qoratorov tarmog'i bo'lib, u bilan janubda esa Zarafshon tog' tizmasi bilan chegaralanadi. Uning sharqiy chegarasi Ravotxo'ja yoki may to'g'oni bilan g'arbda esa Oq va Qoradaryoning tutashgan joyi Xatiray rayoning Hazora qishlog'i atrofidan o'tadi.

Vah ravotxo'ja pasyolkasidan g'arbgacha tomon kengayib boradi va ayrim joylarda uning kengligi 50-55 km vodiyni tashkil qiladi.

Vodiy g'arbgacha tomon pasayibollg'ovial yotqiziqlaridan iborat keng territoriyani vujudga keltiradi. Samarqand viloyatining sug'oriladigan asosiy qishloq xo'jalik ekinlari ana shu tekislikda joylashgan.

Reliefi va geologik tuzilishi. Zarafshon vodiysining o'rta qismida Samarqand vohasi joylashgan. Uni shimoldan Turkiston tog'ining davomi bo'lgan Nurota tog'

tizmasi, Janubidan esa Zarafshon tog‘i o‘rab turadi. Zarafshon vodiysining markaziy qisimni Samarqand qatlovini ishg‘ol etib shimol va janub tomonlaridan o‘rta qismga qiyalab katlovinaning markaziy qismini Zarafshon daryosi kesib o‘tadi, bir necha terrasalarni vujudga keltiradi.

Zarafshon tog‘i asosan poleozoyning ohaqtosh, gips, kristalli slaneslardan iborat. Bu tog‘ tizmasi Samarqand viloyatida Chaqilkalon, Qoratepa, Ziyoddin kabi tog‘larni hosil etib eng baland nuqtasi cho‘qqisi hisoblanadi. Shuni alohida aytish kerakki Qoratepa tog‘i g‘arbiy tomonga pasayib borib. Jom cho‘liga qo‘shilib ketadi. Zarafshon o‘rta oqimi shimoliy qismidagi Nurota tog‘i Turkiston tizmasidan Sangzor daryosi orqali ajralib turadi. Bu daryo kesib o‘tgan joy «Temurlang» darvozasi deb ataladi. Sangzor daryosidan shimoliy g‘arbga tomon cho‘zilib ketuvchi ikkita parallel shimoliy va janubiy tizmalardan iborat. Bu tizmalar bir – biridan katta katlovinalar orqali ajralib turadi. Nurota tag‘larining eni va bo‘yi markaziy qismidan shimoliy – g‘arbga tomon oshib boradi. Qo‘shrobd yo‘nalishida eni 36 km ga balandligi 2100 m gacha etadi. Nurata tog‘larida eng baland cho‘qqi Hayotbaxsh cho‘qqisi bo‘lib, uning balandligi 2163 m. Nurota tog‘i g‘arbdan tomon borgan sari G‘ubdin, Qoroqchi, Oq va Qoratog‘ Pistali kabi kabi massivlarni tashkil etib asosan granit, ohaktosh, qo‘ytosh, marmar kabi tog‘ jinslaridan tuzilgan[10].

Zarafshon o‘rta oqimi Ravotxo‘ja pasyolkasidan g‘arbga tomon kengayib boradi va allyuvial yotqiziqlardan iborat keng inrrassalarini vujudga keltiradi. Vodiyni markaziy qismidagi Jam, Qarnab cho‘llari chorvachilikda yaylov sifatida foydalanish bilan birga, kelajakda yangi sug‘oriladigan dehqonchilik rayoni bo‘ladi. Relefining shakllanishida

Samarqand katlovinasining, ayniqsa daryoning o‘ng qirg‘og‘idagi fizik nurashning roli ham kattadir. Er usti tuzilishining hozirgi ko‘rinishi tartib topishda: quyidagi faktorlar ishtirok etadi: tektonik harakat,



2.1.1- rasm. Zarafshon daryosi soxili suv resurslaridan qishloq xujaligida foydalanish.

eroziya jarayoni, fizik kurash, karek va suffoziya hodisalari va oxirgi eng muhim faktor bu inson xo‘jalik faoliyati. Bularning rel’ef hosil qilishdagi roli bir xil emas. Notektonik harakatlar ikki xil formada namoyon bo‘ladi.

a) gipsametrlik yuzasining to‘g‘ridan – to‘g‘ri deformatsiyalash.

B) yangi deputatsion jarayon asosan errozion formada namoyon bo‘ladi. Shamol erroziyasi va akkumlyasiya relief hosil bo‘lishida katta rol o‘ynaydi. Shamol faoliyatining izlari hatto quyi jinslarda ham uchraydi. Shamol emirilishi natijasida granitlarda chuqurchalar, go‘ngak stalbalar «tosh qo‘ylar», zamburug‘ va boshqa shakllar vujudga kelgan. Rel’ef hosil qilishda oquvchi suvlar ham ishtirok etadi. Tog‘ rayonlarida chuqurlik eroziyasi, tekislikda- yotqizish ishlari bajaradi. Seli davrlarda eroziya va akumlyativ jarayon intensiv ravishda boradi. Er osti suvlarining rel’ef hosil qilishdagi roli atmosfera yog‘inlarining miqdori pastligi bilan chegaralanadi. Bu quruq rayonlarda karek va suffoziya jarayonlarining rivojlanishiga olib keladi. Rel’efga insonning ta’siri kishilarda keng qiziqish uyg‘otib kelmoqda. Vohalarda sug‘oriladigan erlarni planga olishda, erlar tekislanadi, chuqurlar to‘ldiriladi. Inson tomonidan bunyod etilgan qolip irrigatsiya kanallari to‘g‘ri er rel’efining bo‘linib turishga olib keladi. Bundan kanallardan Tuyatorlar, Darg‘om, Narpay, Bulung‘ur, Poy va boshqalar. Bunday kanallarni oqiziqlardan tozalash paytida 14 m gacha ko‘tarilgan rel’ef formalari vujudga keladi. Bundan tashqari, qadimgi aholi kunkitlarining qoldiqlari, ya’ni qo‘rg‘oshin ham rel’ef shaklini o‘zgartirib turadi. Shulardan masalan Chelek qo‘rg‘oni tepaligi balandligi 200 m eni 300 m keladi. Kamarqand vohasi janub tomonidan o‘rab turgan Chaqikalon tizmasi magiyon daryo vodiysidan Omonquton soygacha kenglik yo‘nalishida 90 km ga cho‘zilgan. Uning dengiz sathidan o‘rtacha balandligi 2000 m, ayrim cho‘qqilari esa 2809 m. Shimoliy yon bag‘ri qisqa tik va tor vodiy bilan o‘tgan. Tizimning g‘arbiy qismi Qirqtov gratosi. Bu erda yoriqsimon ohaktoshlar kuchli rivojlangan bo‘lib bu karek hodisasi sodir bo‘lishi qo‘lay sharoit yaratadi[12].

Iqlimi va iqlim xususiyatlari. Zarafshon vohasi iqlimi keskin kontinental boʻlib issiqlik va yorugʻlikka boy. Samarqand vohasini togʻlar oʻrab turishi murakkab reliefi, Zarafshon daryosining kesib oʻtishi va sugʻorish inshootlarining koʻpligi, Qattaqoʻrgʻon suv omborining mavjudligi mahalliy iqlim hosil qiluvchi faktor hisoblanadi. Viloyatning geografik oʻrni ham iqlim hosil qilishda ishtirok etadi. Samarqand vohasining janubiy geografik kenglikda joylashganligi sababli bu erda quyosh issiqligi va yorugʻligi koʻp tutashadi. Samarqand meteorologiya stansiyasining maʼlumotiga koʻra yil boʻyi quyoshning yoritishi 2877 soatga teng, buning 70% may oyidan oktyabr oyigacha toʻgʻri keladi va bu qishloq xoʻjalik ekinlarining rivojlanishi va oʻsishi uchun eng qulay davr hisoblanadi. Shuning uchun ham Samarqand viloyatining qishloq xoʻjalik ekinlaridan asosan paxta, yorugʻlik sevuvchi oʻsimliklar oʻsadi. Bu rayon kontinental ichkarisida joylashganligi sababli iqlimining quruq boʻlishiga sutkalik va oylik temperaturaning tebranib turishga sabab boʻladi.

A.N.Babushkin va A.V.Xasanovlarning fikricha (1965) bu qishni rayonlar ham temperaturasining intensivligiga, inversiyaga bogʻliq. Ammo shimoliy havo massalarining kirib kelishi sababli ayrim hollarda havo temperaturasining absolyut minimum -35° gacha pasayadi. Bunday hollar juda kam roʻy bberadi, qishning kuchli sovuq kunlari bu rayonda hammasi boʻlib 9-10 kun temperaturasi -0° past boʻlgan kunlar 48-50 kunni tashkil etadi. Qishda vegetatsiya davri 50% shuning uchun ham issiqlikni koʻp talab etuvchi oʻsimliklar vegetatsiya davri asosan mart oyidan, vohaning gʻarbiy qismining 5-10 kun keyin boshlanadi. Qishning yanvar oyida shimoliy sharqdan esgan sovuq havo bosimining effekti 1026-1028 m b ga koʻtariladi. Qor qatlami ham gʻarbdan sharqda tomon orta boradi[15].

Samarqand vohasida eng issiq oy iyul oyi hisoblanadi. Iyul oyining oʻrtacha temperaturasi $+26^{\circ} + 28^{\circ}$, yozda havo temperaturasining absolyut minimumi $+41^{\circ} + 45^{\circ}$ gacha etadi, bu esa quyi Zarafshondagidan $+2^{\circ} + 3^{\circ}$ past demakdir. Yoz temperaturasining pasayishi joyning balandlashib boradi va boy

o'simlik qoplami bilan ifodalanadi. Yoz oylarida Samarqandda quyosh nurining tushish burchagi 74^0 qishda esa 30^0 (Xalimov, 1968) Shu sababli Samarqand katlovikasida quyosh nurining doimiyligi 2916 soat teng.

Quyosh nurining doimiyligi yil bo'yicha eng ko'p iyul oyida Samarqandda 398 eng kam tushadigan oy dekabrda. 240 soatni tashkil qiladi. Quyoshsiz kunlarning asosiy qismi dekabr oyiga to'g'ri keladi va g'arbdan shaqqa tomon o'zgarib boradi. Quyoshsiz kunlar O'rta Zarafshonda 33 kunni tashkil etadi. Yozda atmosfera bosimi gradienti janubiy sharqqa qarab yo'nalgan bo'ladi. Iyul oyida umumiy bosim sathi o'rganilayotgan rayonda yanvar bilan solishtirganda 20-22 m b ga pasayadi. Fevral oyidan to iyulgacha ko'tarilib boradi[29].

Zarafshon daryosi o'rta oqimining xilma-xil reliefi rayon territoriyasida havo temperaturasining taqsimlanishida katta rol o'ynaydi. Butun territoriya bo'yicha o'rtacha havo temperaturasi 12^0 - 15^0 atrofida tebranadi. Past temperaturaga ko'pincha katlovikalarda uchraydi. U $11,6^0$ ga teng yanvarning o'rtacha temperaturasi rayon bo'yicha $-3-4^0$ dan 0^0 gacha tebranib turadi. Yillik yog'in miqdorining taqsimlanishiga rel'ef va tog' yon bag'irlarining joylashishi katta ta'sir ko'rsatadi. O'rtacha yog'in miqdori 250-350 mm bo'lib, vohaning g'arbidan 200-250mm bo'lib. Faqat tog'larda Urgut va Omonqutonda 1749 m (1969) va 1116 mm (1972) yog'in tushgani kuzatilgan. O'zbekiston okean va dengizlardan uzoqda, Evrosiyo materigining ichki qismida joylashganligi tufayli kontinental iqlimga ega bo'lib, osmoni nihoyatda ochiq seroftob uzoq davom etadigan jazirama issiq va quruq yoz bilan shu geografik kenglik uchun birmuncha sovuq qish bilan tavsiflanadi. O'zbekistonda iqlimning barcha unsurlarining yillik o'zgarishi orasida katta tafovutlar mavjud bo'lib, ular eng avvalo iqlim hosil qiluvchi omillarning xususiyatlariga bog'liq.

Suv resurslari . O'zbekiston ichki suvlariga daryolar, ko'llar, er osti suvlari, muzliklardagi suvlar, suv omborlari, kanal va ariqlardagi suvlar kiradi. Ichki suvlar faqat jumhuriyat iqlim xususiyatlariga emas, balki uning tabiatning boshqa unsurlariga xususan relefiga ham bog'liqdir. Relf ichki suvlarga shu jumladan oqim hosil bo'lish jarayoniga bevosita hamda tabiiy-geografik omillar,

ayniqsa iqlimiy omillar orqali bilvosita ta'sir etadi. Chunki tog' yonbag'irlarining ko'pincha tik bo'lganligi tufayli yoqqan yomg'ir, erigan qor va muz suvlari tezda pastga oqib tushib, soy va daryolarni hosil qiladi. Buning ustiga tog'larda mutlaq balandlikning ortib borishi tufayli yog'in ko'proq tushadi, haroratning pastligi oqibatida qalin qor qoplami hosil bo'ladi, muzliklarni to'yintirib turadi. Qor va muz suvlarining hosil bo'lishiga daryolarni to'yintirib turishiga qulay sharoit yaratadi.

Jumhuriyatimiz er maydonining 71% ni ishg'ol qilgan tekislik qismida tog'larda vujudga kelgan suvlar bug'lanish (yekin dalalaridan, sug'orish shoxobchalaridan, tuproq yuzasidan va o'simliklar orqali) va shimilish natijasida sarflanib ketadi. Chunki tekislik qismida yog'in juda kam aksincha bulutsiz jazirama issiq kunlarning uzoq davom etishi tufayli mumkin bo'lgan bug'lanishning ko'pligi oqibatida daryolar juda kam er osti suvlari nisbatan chuqur joylashib, sho'rtang. Ana shu sabablarga ko'ra jumhuriyatimiz tekislik qismida tranzit daryolarni hisobga olmaganda doimiy oqimga ega bo'lgan daryolari yo'q hisobi.

Jumhuriyat ichki suvlari landshaft unsuri sifatida o'z navbatida tabiatning boshqa unsurlariga ta'sir etadi va ular bilan uzviy aloqada rivojlanadi. Ichki suvlar jumhuriyat er yuzasi relefini o'zgartiradi, tuproq hosil bo'lishida, o'simliklarning rivojlanishida ishtirok etadi. Ichki suvlar jumhuriyat xalq xo'jaligi va maishiy turmushida muhim ahamiyatga ega.

Jumhuriyat ichki suvlari xususan daryo oqimining o'zgarishida kishilarning xo'jalik faoliyati ham muhim omillardan biriga aylanib qoldi. Chunki O'zbekistonning tekislik qismida unumdor, lekin qurg'oqchil erlarning mavjudligi ularni sug'orishni taqozo etadi. Buning uchun esa daryolardan ko'plab sug'orishga suv olinadi, oqibatda ularning oqimiga ta'sir etib ba'zilar ma'lum havzaga etib bormasdan tog'dan tekislikka chiqqach suvi juda kamayib qurub qoladi. Shuningdek, kishilar erlarni sug'orish uchun sersuvli daryo havzasidan kanallar qurib kamsuvli daryo havzasiga uning bir qismi suvini burib yuborib, daryolarning

suv oqimini qayta o'zgartiradi. Bunga Zarafshon suvining bir qismi eski Tuyatortar kanali orqali Sangzor daryosiga, Amu-Buxoro magistral kanali orqali Amudaryo suvining bir qismini Quyi Zarafshonga burib yuborilganligi yaqqol misoldir[15].

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonning tog'li qismi bilan tekislik qismining gidrolik xususiyati bir-biriga butunlay qarama-qarshidir. Chunki uning tog'li qismida namlik to'planib, uning bir qismi bug'lansa, bir qismi oqar suvlarni, yana bir qismi shimilib, er osti suvlarini hosil qiladi, tog'larda ularning ko'p qismi tabiiy drenajga ega bo'lganligidan daryo tarmoqlariga qayta kelib qo'shilsa, qolgan qismi tekislikdagi er osti suvini to'yitirib turadi. Tog'dan bo'shlanadigan daryolar, tekislik qismiga chiqqach ularning suvi ko'plab bug'lanadi, shimiladi, sug'orishga sarflanib, ko'pchilik daryolar suvi ozayib, ma'lum havzaga etmasdan cho'llar ichida yo'q bo'lib ketadi.

So'ngi yillarda kishilarning xo'jalik faoliyati jumhuriyatimiz daryo oqimiga emas, balki qo'larning joylashishiga, er osti suv sathining o'zgarib turishiga ham ta'sir etmoqda. Sug'oriladigan mintaqada va unga yaqin bo'lgan joylarda ekin dalalarini sug'orish davrida yoki tuproq sho'rini yuvish vaqtida er osti suvining tabiiy drenaji sekin bo'ladigan joylarda uning sathi ko'tarilib, tuproqning qayta sho'rlanishiga olib kelmoqda. Bunday joylarga quyi Amudaryo, quyi Zarafshon, Mirzacho'l, Qarshi cho'lini misol qilib keltirish mumkin.

O'sha er osti suvining tabiiy siljishi sekin bo'lgan, qayta sho'rlashgan joylarda zovur - drenajlar qurib, er osti suvini sug'oriladigan mintaqadan tashqariga chiqarib tashlash oqibatida esa bir qancha sho'r ko'llar vujudga kelmoqda. Bularga jumhuriyatimizdagi Aydor, Tuzkan, Arnasoy, Sudoche, Sariqamish, Ulug'sho'rko'l, Oqko'l va boshqalar yaqqol misoldir.

Shunday qilib, so'nggi yillarda jumhuriyatimiz ichki suvlarining gidrolik xususiyatlaridagi o'zgarishlar kishilarning xo'jalik faoliyatiga ham sezilarli darajada ta'sir etmoqdaki, ularni hisobga olmaslik mumkin emas. Jumhuriyat

ichki suvlari ichida tirik organizm va ayniqsa insonlarning hayoti va xo‘jalik faoliyati uchun eng muhim daryolardir. O‘zbekiston Turkistonning markazida, materikning ichki qismida joylashganligi tufayli uning daryolari okean va dengizlariga qo‘yilmaydi, binobarin berk havzaga qaraydi. Jumhuriyatimiz daryolari hudud bo‘yicha notekis joylashgan bo‘lib, o‘ziga xos gidrologik xususiyatiga ega.

O‘zbekiston hududida daryo tarmoqlarining zichligi bir xil emas. Jumhuriyat er maydonining 71 foizini ishg‘ol qilgan tekislik qismida daryo to‘tarmoqlari juda siyrak joylashib, har kv. km maydonga 2 m. Uzunlikdagi daryo to‘g‘ri keladi. Vaholanki, do‘stlik hududi bo‘yicha daryo tarmoqlarining o‘rtacha zichligi har kv. km maydonga 140 metrdir.

Jumhuriyatimiz hududining 17 foizini ishg‘ol qilgan adirlar qismida esa daryo tarmoqlari nisbatan zichlashib boradi. Lekin bu erlarda juda ko‘p sug‘orish shaxobchalari (ariq, kanal) boshlanib, ularning suvini har tomonga tarqatib, sug‘orishga sarflab yuboradi.

O‘zbekiston er maydonining 12 foizini ishg‘ol qilgan tog‘li qismida har kv. km. maydonga o‘rtacha 140 -150 m. Uzunlikdagi daryo tarmoqlari to‘g‘ri keladi

Jumhuriyatimiz hududida daryo tarmoqlarining zichligi bir xil emasligi eng avvalo uning relefiga, iqlimiy xususiyatlariga bo‘g‘liq. Shu sababli relefi baland sernam, yog‘inga nisbatan (Haroratining pastligi tufayli) bug‘lanish kam bo‘lgan (potensial bug‘lanish) tog‘li qismida yoqqach yog‘inning ko‘p qismi oqimga aylanib, soy va daryolarni hosil qiladi. Ma’lumotlarga ko‘ra jumhuriyat tog‘larning g‘arbiy qisimda yiliga 1000 -150 mm gacha yog‘in tushadi. Bu esa tog‘larning g‘arbiy yonbag‘ridan boshlanuvchi Norin, Zarafshon, Chirchiq, Qoradaryo kabi, daryolarning sersuv bo‘lishiga sababchi bo‘lgan. Jumhuriyatimiz tekislik qismida esa, aksincha yoz issiq, quruq seroftob bo‘lib, yillik yog‘in miqdori 80 – 200 mm atrofida, lekin mumkin bo‘lgan bug‘lanish esa 1500 – 2000 mm ga etadi.

Bunday iqlimiy sharoitda oqimning vujudga kelishi juda qiyin. Shu tufayli jumhuriyatimiz tekislik qismida daryo tarmoqlari juda siyrak.

Shunday qilib, jumhuriyatimiz tog‘li qisim bu qor – muz, yomg‘irsuvi yig‘iladigan. Er usti va er osti suvlari vujudga keladigan mintaqqa bo‘lsa, aksincha, uning tekislik qismi esa o‘sha tog‘lardan oqib kelayotgan suvlarni sarflaydigan mintaqadir[22].


O‘zbekiston daryolari asosan uning tog‘li qismidan hamda Qirg‘iziston va Tojikiston hududidagi tog‘lardan suv oladi. Agar Amudaryo va Sirdaryo havzalaridan vujudga keladigan yillik oqimni 100% desak, shundan Amudaryoning 8%, Sirdaryoning 10% oqimi O‘zbekiston hududida vujudga keladi, xolos. Shuningdek, O‘zbekistonning eng muhim daryolari hisoblangan Norin, Qoradaryo, Sox, Chirchiq, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryolarining ham yuqori oqimlari jumhuriyat hududidan tashqarida joylashib, o‘sha joylardan suv to‘playdi va to‘plagan suvini o‘rta va quyi oqimida, ya’ni jumhuriyatimizda sarflaydi.

Jumhuriyatimiz suv to‘playdigan uning tog‘li qismida oqimning vujudga kelishi miqdori, rejimi va tarqalishi hamma qisimda bir xil emas. Bu ng avvalo tog‘larning orografik tuzilishiga, balandligiga, yog‘ilarning miqdoriga bog‘liq, Haqiqatan ham tog‘ tizmalarining nam havo oqimiga ochiq va ularning yo‘nalishiga ro‘paro‘ bo‘lgan tog‘larning janubi – g‘arbiy va g‘arbiy yog‘in ko‘proq tushadigan yonbag‘irlarida suv yig‘adigan maydonlari suvga eng serob hisoblanadi. Shu sababli Hisor tog‘ning janubiy – g‘arbiy yonbag‘ridan, G‘arbiy Tyanshanning janubiy – g‘arbiydan suv oluvchi daryolar (Pskom, Ugom, Ko‘ksuv, Surxandaryo va Qashqadaryoning ayrim irmoqlari) uchun oqim moduli (suv yig‘ilish maydonlarining nisbiy sersuvlari) katta. Bu joylarda tog‘larning 3000 m balandliklarida bir kv. km maydondan sekundiga 30 – 50 litr oqim vujudga keladi. Aksincha, jumhuriyatimiz tog‘larining shimoliy, sharqiy yonbag‘irlarida, xususan, Oloy, Turkiston, Zarafshon, Hisor tog‘larning shimoliy, sharqiy yonbag‘irlarining 3000 m. Baland qisimlarida bir kv. km. maydonda sekundiga 7 -12 litr oqim to‘planadi.

O'zbekiston tog'li qismida oqim moduli yana uning mutloq balandligiga ham bo'g'liq. Tog'larning quyi qismida 1000 – 1500 m. Balanliklarida oqim modulining miqdori bir km yuzadan sekundiga 0,5 – 1,0 oqim vujudga keladi, 1500 – 2000 m. Balandlikda 7-10litrl, 2000-2500 m baladliklarda -10-17 litr, 2500 – 3500 m. Baladliklarda esa 20 litrdan ortiq oqim vujudga keladi. G'arbiy Tyanshan va Hisor tizmalarining janubiy – g'arbiy yonbag'irlarida 2500-3500 m balandliklarda bu ko'rsatgich 30- 50 litrga to'g'ri keladi. Shu sababli jumhuriyat tog'larning 3000 m balanddan boshlanuvchi daryolari (Pskom, Ugom, Ko'ksuv, To'palon, tanxoz, So'x,) sersuv, aksincha, past tog'lardan boshlanuvchi daryolari (Ohangaron, Sangzor, Zaminsuv, Sherobod, G'uzordaryo, Tusun) ning suvi nisbatan kam bo'lib, ayni yozda ozayib qoladi [25].

Daryolarning to'yinishi. Jumhuriyat daryolari suvlarini nimadan va qanday manbalardan to'plashligi (olishligi) ni bilishi ham nazariy, ham amali ahamiyatga ega. Chunki daryolarning to'yinish manbai (nimalardan suv olishi) uning oqimini hosil bo'lishiga, binobarin rejimiga ta'sir ko'rsatadi. Lekin shuni esdan chiqarmaslik kerakki, O'zbekiston daryolari ichida faqat bitta manbadan suv oladiganlari yo'q. Ular turli manbalardan – qor va muzlarning erishidan, yomg'ir suvlaridan namda er osti suvlaridan to'yinib turadi.

O'zbekiston hududidan oquvchi daryolarning aksariyati Tojikiston va Qirg'iziston jumhuriyatlari hududida joylashgan tog'lardagi doimiy qor va muzliklarning erishidan suv to'playdilar. Jumhuriyatimiz tog'lari u qadar baland bo'lmaganligi tufayli daryolarni suv bilan to'yintirib turishda asosiy manba qorlardir. V. L. Shulsning ma'lumotiga ko'ra Turkiston daryolarining to'yinishida qorlarga nisbatan muzlik suvlarning hissasi ancha kam. Uning ma'lumotiga ko'ra muz suvlari umumiy oqimning 10-15% ini tashkil etadi, xolos. Hatto jumhuriyatimizga suv yig'adigan havzasiga muzliklar eng ko'p bo'lgan Isfara, So'x, Zarafshon kabi daryolarda ham muzning hissasi yillik oqimlarning 25 – 30% tashkil etadi. Aksincha Turkiston, jumladan jumhuriyatimiz daryolarini suv bilan to'yintirib turishda qor va er osti suvlarning hissasi katta[25].



2.1.2- rasm. Zarafon daryosi soxili ekotizimlaridan chorvachilikda foydalanish.

O'zbekiston daryolarning to'yinishida muz, qor suvlaridan tashqari yilning issiq faslida yomg'ir suvlarning ham hissasi bir. Yomg'ir suvlarning hissasi jumhuriyat daryolarning yillikoqimining tahminan 5-15%ni tashkil qiladi. Tog'larning baland qismidan boshlanadigan Zarafshon, Sux, Isfara kabi daryolarning to'yinishigda yilliq oqimning faqat 1-2 % ni yomg'ir suvlari tashkil etsa, Sirdaryo havzasidagi daryolar yillik oqimining 6%, Amudaryo havzasidagi daryolaryillik oqimining 3-3,5 ini tashkil qiladi. Past tog'lardan boshlanuvchi Ohangaron, G'uzor, Sangardak, Sherobod kabi daryolarning to'yinishida yomg'ir suvlarning hissasi 10 -15%ga etadi. Hatto Kalas, Tusun daryolarning yillik oqimida yomg'ir suvlarning hissaai 30% va undan ham oshishi mumkin. Shunday qilib, V. L. Shuls va R. Mashrapovlarning ma'lumotlariga ko'ra Turkiston, jumladan O'zbekiston tog'lardan tekisliklarga keladigan umumiy oqimning 5 foizigina yomg'ir suvlaridan hosil bo'ladi.

O'zbekiston daryolarning yana bir suv oladigan manba bu er osti suvlari hisoblanadi. Bu manba daryolarni qish faslida to'yintirib turuvchi assosiy manbadir. Tog'larda va ayniqsa tog' oldi tekisliklarida er osti suvlarining hissasi ancha katta bo'lib, g'atto kichik- kichik soylarni suv bilan to'yintirib turadi va ularni xalqimiz "Qorasuv" deb atashadi. Bundan suvlar Zarafshon vodiysida mavjud bo'lib, ularning eng muhim Siyob soyi (Ulug'bek rasadxonasi yonida) dir.

Shunday qilib, yuqorida qayd qilinganlardan ma'lumki, Turkiston, jumladan O'zbekiston tog'larida vujudga keladigan daryolarning yillik suv oqimining (V. L. Shuls va R. Mashrapov ma'lumotiga ko'ra) 10% muz suvlari hissasiga, 5% yomg'ir suvlariga, 40% er osti suvlariga, 45% esa doimiy va mavsumiy qorlarning erishidan vujudga kelgan suvlar hisobiga to'g'ri keladi. Lekin shuni esdan chiqarmaslik kerakki, jumhuriyatimiz daryolarining hammasi yillik oqimida yuqorida qayd qilingan manbalardan hosil bo'lgan suvlar hissasi bir xil emas, Daryoning qaeridan va qanday balandliklardan boshlanishiga bog'liq holda ularning hissasi o'zgarib turadi. Shuning uchun V. L. Shuls (yer osti suvlari bilan

to'yinadigan kichik daryolardan mustasno) Turkiston daryolarini to'yinishi xususiyatlariga ko'ra quyidagi to'rt tipga bo'ladi:

- 1.Muzlik- qor suvlaridan to'yinadigan daryolar;
- 2.Qor – muzlik suvlaridan to'yinadigan daryolar;
- 3.Qor suvlaridan to'yinadigan daryolar;
- 4.Qor- yomg'irsuvlaridan to'yinadigan daryolar.

Tuproqlari.Murakkab tabiiy geografik sharoitlar natijasida tuproq qatlami turlichadir. Bu erda turli vertikal tuproqlar poyasini ko'rishimiz mumkin.

1. allyuvial, prolyuvial tog' oldi tekisliklari tipik bo'z tuproqlari.
2. past tog' oldi qo'ng'ir bo'z tuproqlari.
3. past va baland tog' oldi to'q bo'z tuproqlari.
4. jigarrang o'rtacha balandlikdagi tog' oldi tuproqlari.

Zarafshon qatlovinasida gidromorf tuproqlar Zarafshon va sangzor daryosi territoriyalarida uchraydi. Erning sug'orilishi sekinlashishi natijasida Zarafshonda ham madaniy voha tuproqlari vujudga kelgan. Morfologiyasi, rangi, fizik-ximik tarkibi bo'yicha jigarrang tuproqlar bo'z tuproqlardan keskin farq qiladi.

Jigarrang tuproqlar uch garizontga bo'linadi: Yuqori gorizont chirindili odatda to'q qo'ng'ir yoki jigarrang. O'rta gorizont- bir tekisda bo'lgan va jigar rangli. Pastkigorizont- karbonatli nurayotgan gorizont. Gumus saqlash darajasi zarafshon havzasida 6-8 % ni tashkil qiladi.

O'zbekistonda har bir paxta ekilayotgan gektar erga 120 kg azot va 100 kg fosfor solingan. Zarafshon daryosi suvida 0,76 chirindi, 0,046 azot, 0,12 fosfor, 2,56 kaliy bor. Bundan tashqari sug'orishda erga mikroelementlar marganes va molibden tushadi. Turrasalardagi gidromorf tuproqlar bo'z tuproqlari poyasda bo'lib, Zarafshon daryosi Qayir va Qayir oldi zonasida joylashgan. Bu territoriyada Ijtixon, Oqdaryo, Poyariq rayonlari joylashgan. Tuproq hosil qiluvchi jinslar qum, qumli gil va daryo loyoqa yotqiziqlari lyoss, gidromorf tuproqlar botqoq va o'tloqqa bo'linadi[15].

Vohada tipik boʻz tuproqlar daryoningtarrassidagi allgovial, prolovial togʻ oldi va Turkiston tizmalarining gʻarbiy chekkasidagi togʻ oldi va past togʻlar territoriyasida tarqalgan. ular dengiz sathidan 400 m balandlikdan to 900-1000 m gacha uchraydi.

Oʻsimliklari Samarqand vohasida ham landshaftlarning vertikal zonal oʻzgarishi yaqqol namoyon boʻlgan, bu singari oʻsimlik qoplami ham oʻzgarib boradi. Voha oʻsimliklarini Q.Z. Zokirov 1955 yil quyidagicha toʻrtta zonaga ajratadi.

1. Choʻl zonasi- balandligi 500 (600) m, reliefi tekislik, iqlimi juda issiq, yaylov sifatida yil boʻyi foydalaniladigan territoriyalar.

2. Adir zonasi- balandligi 500-600 m 1200 (1500) m reliefi togʻ oldi iqlimi issiq bahori, kuzgi, qishgi yaylov sifatida foydalaniladigan territoriyalardir.

3. Togʻ zonasi- balandligi 1200 (1500)- 1700 (2800) m reliefi togʻli iqlimi salqin yaylov sifatida bahorda yozda, kuzda foydalaniladi.

4. Yaylov zonasi- 2700-2800 m reliefi baland togʻli, iqlimi sovuq yaylovsifatida yozda foydalaniladi[5].

Nurota, oqtoʻv, Gʻubdintov, Ziyoddin Zirabuloq togʻ oldi etaklarida chala choʻl va choʻl oʻsimliklari asosiy oʻrinni egallaydi. Bu erda shuvoq efermer oʻsimliklari koʻpchilikni tashkil etadi. Togʻ etaklarining ayrim joylari koʻziquloq oʻsimliklaridan iborat.

Rang qoʻngʻirbosh, bugʻdoyiq, qiltiq chitir kabi efemer yaylov oʻsimliklaridan hisoblanadi.

Hayvonot dunyosi. Samarqand vohasi tabiiy sharoitining xilma-xilligi hayvonot dunyosining xilma-xilligida ham koʻrinadi. Bu erda qumli choʻllarda, choʻl-dasht zonasida, togʻ oldi va togʻ zonasida, daryo vodiysida joyning landshaft sharoitiga moslashgan hayvonot turlari yashaydi.

Zarafshon oʻrta oqimining shimoliy-gʻarbiy qismi Qizilqum territoriyasida joylashgan. Shuning uchun bu erda yashovchi hayvonlarning rangi koʻlga oʻxshash boʻladi yaʼni sargʻish rangda. Qumli choʻllarda sudralib yuruvchilardan choʻl kaltakesagi, tur-tur kaltakesak, ilonlardan choʻl bugʻma iloni va charx ilon efa karakterlidir.

Qushlardan xo‘jasavdogar, chul burg‘ayi, qarg‘alar va boshqalarni uchratish mumkin. sut emizuvchilardan ingichka barmoqli yumronqoziq, sichqon, taroq barmoqli qushoyoq, tipratikan shuningdek bo‘ri, tulki, jayron, quyonlar ham tarqalgan.

Samarqand viloyatining Zarafshon vodiysi soylarida oddiy Marinka, zarafshon daryosida Turkiston tangabalig‘i, Turkiston usachi, Marinka-sazan (zog‘ora baliq), laqqa baliqlari tarqalgan.



2.1.3- rasm.O‘simliklarga antropogen omillar ta’siri.

2.2.Tadqiqot ob'ektlari.

Zarafshon daryosi soxili ekotizmlariga antropogen omillarning ta'sirini har tamonlama o'rganildi. Zarafshon daryosi soxili ekotizmlariga antropogen omillarning ta'sirini yoritishda Samarqad viloyat tabiatni muhafoza qilish kumitasi ma'lumotlaridan ham fodalandik.

2.3.Tadqiqot uslublari.

